BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ONGLI O‘QISH KO‘NIKMALARINI EGRA-U DIAGNOSTIK VOSITASI ASOSIDA BAHOLASH: MEZONLAR, DARAJALAR VA ISHONCHLILIK

Ne’matova Diyora Baxodir qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340002

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongli o‘qish ko‘nikmalarini baholashga mo‘ljallangan, xalqaro EGRA metodologiyasi asosida o‘zbek tili uchun ishlab chiqilgan EGRA-U diagnostik vositasi tavsiflanadi. Ongli o‘qishni baholashning texnik, mazmuniy, lingvistik va motivatsion mezonlari hamda o‘n ikki ko‘rsatkichdan iborat tizimi, tushunishning to‘rt darajasi, to‘rt parallel variantli topshiriqlar bankining tuzilishi, tinglab tushunish subtestining diagnostik vazifasi, integral ko‘rsatkich va daraja chegaralari asoslanadi. Pilot sinov ma’lumotlari asosida vositaning ichki izchilligi va baholovchilar kelishuvi keltiriladi. Vosita o‘qituvchiga o‘quvchining o‘qishdagi qiyinchiligi sababini aniqlash va shu asosda ish yo‘nalishini tanlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ongli o‘qish, boshlang‘ich ta’lim, EGRA, EGRA-U, diagnostika, baholash mezonlari, tushunish darajalari, parallel variantlar, ishonchlilik.

Аннотация. В статье описывается диагностический инструмент EGRA-U, разработанный для узбекского языка на основе международной методологии EGRA и предназначенный для оценки навыков осознанного чтения учащихся начальных классов. Обосновываются система критериев (технический, содержательный, лингвистический, мотивационный) и двенадцати показателей, четыре уровня понимания, структура банка заданий с четырьмя параллельными вариантами, диагностическая функция субтеста аудирования, интегральный показатель и границы уровней. По данным пилотного исследования приводятся внутренняя согласованность и согласованность оценщиков. Инструмент позволяет учителю определить причину затруднений ученика в чтении и выбрать направление работы.

Ключевые слова: осознанное чтение, начальное образование, EGRA, EGRA-U, диагностика, критерии оценки, уровни понимания, параллельные варианты, надёжность.

Abstract. The article describes EGRA-U, a diagnostic instrument developed for the Uzbek language on the basis of the international EGRA methodology to assess conscious reading skills of primary school pupils. It substantiates a system of four criteria (technical, content, linguistic, motivational) with twelve indicators, four levels of comprehension, the structure of an item bank with four parallel forms, the diagnostic role of the listening comprehension subtest, an integral index and level thresholds. Internal consistency and inter-rater agreement from a pilot study are reported. The

instrument enables the teacher to identify the cause of a pupil's reading difficulty and to choose an appropriate line of work.

Keywords: conscious reading, primary education, EGRA, EGRA-U, diagnostics, assessment criteria, comprehension levels, parallel forms, reliability.

Kirish

Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini baholash mezonlari so‘nggi yigirma yilda sezilarli o‘zgardi: maktabga qamrov o‘rniga o‘quvchining o‘qiganini qanchalik tushunishi va undan foydalana olishi birinchi o‘ringa chiqdi. Xalqaro tadqiqotlar maktabda bir necha yil o‘qigan bolalarning salmoqli qismi oddiy matnni anglab o‘qiy olmasligini ko‘rsatgach, boshlang‘ich sinflarda o‘qish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich o‘lchaydigan EGRA (Early Grade Reading Assessment) metodologiyasi yaratildi va yetmishga yaqin mamlakatda yuzdan ortiq tilga moslashtirildi [7; 8].

O‘zbekistonda 2021-yilda o‘tkazilgan milliy baholash tadqiqoti (935 maktab, 3- va 5-sinflarning yigirma bir mingdan ortiq o‘quvchisi) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida harf tanish va so‘z o‘qish ko‘nikmalari yaxshi shakllanganini, ammo o‘qib tushunishda jiddiy kamchilik borligini aniqladi: ikkinchi sinfdan to‘rtinchi sinfga o‘tganda ravonlik o‘sgani holda o‘qib tushunish ko‘rsatkichi 79 foizdan 65 foizga tushgan [14; 15]. PIRLS-2021 da to‘rtinchi sinf o‘quvchilarimizning o‘rtacha natijasi 437 ballni tashkil etdi [12], PISA-2022 da esa o‘n besh yoshlilarning atigi 14 foizi o‘qish savodxonligining minimal yetarli darajasiga erishdi [13]. Uch o‘lchov bir xil manzarani ko‘rsatadi: texnik o‘qish erta egallanadi, tushunish esa ortda qoladi.

Bu holatning metodik sababi aniq: maktab amaliyotida o‘qish ko‘nikmasi asosan tezlik va to‘g‘rilik bo‘yicha tekshiriladi, tushunishning darajalari esa o‘lchanmaydi. Davlat ta’lim standartida “o‘qilgan matn mazmunini va o‘zgalar fikrini anglash” talabi qayd etilgan bo‘lsa-da [6], uni sinf darajasida muntazam o‘lchash vositasi mavjud emas. O‘qituvchi o‘quvchining matnni tushunmaslik sababini (dekodlash zaifligimi, til bazasi yetishmasligimi yoki tushunish strategiyalarining yo‘qligimi) bilmay turib, ish yo‘nalishini tanlay olmaydi. Mazkur maqolaning maqsadi shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan EGRA-U diagnostik vositasining mezonlari, darajalari va tuzilishini asoslash hamda uning ishonchliligi bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarni keltirishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ongli o‘qishni o‘lchash vositasi o‘qish jarayonining tuzilishi haqidagi nazariy tasavvurga tayanishi kerak. “O‘qishning oddiy qarashi” modeliga ko‘ra o‘qib tushunish ikki mustaqil tarkibiy qism — dekodlash va tilni tushunishning ko‘paytmasi sifatida qaraladi [9; 10]. X.Skarboro bu ikki qismni ko‘nikmalar to‘plami sifatida ochib berdi: so‘zni tanish bilan bog‘liq ko‘nikmalar (fonologik idrok, harf-tovush munosabati, so‘zni bir qarashda tanish) tobora avtomatlashadi, til bilan bog‘liq ko‘nikmalar (lug‘at, grammatik tuzilmalar, olam haqidagi bilim, matn janrlari, mantiqiy mulohaza) esa tobora ongli, strategik tus oladi [16]. V.Kinchning tushunish qatlamlari nazariyasi matn sirti, matn asosi va vaziyat modelini ajratadi; tushunishning yuqori darajalari

aynan vaziyat modelini qurish bilan bog‘liq [11]. Ch.Perfettining leksik sifat gipotezasi so‘z haqidagi bilimning aniqligi va tezligi tushunishning asosiy bashoratchisi ekanini ko‘rsatadi [17].

Bu nazariy asoslar EGRA metodologiyasida o‘lchov tamoyillariga aylantirilgan: o‘qishning tarkibiy qismlari alohida subtestlarda, og‘zaki, yakka tartibda va vaqt bo‘yicha (bir daqiqa) o‘lchanadi, natijalar o‘qituvchi uchun tushunarli birliklarda (daqiqada to‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar, to‘g‘ri javoblar ulushi) ifodalanadi [7; 8]. Respublikamizda o‘qib tushunish malakasini baholash masalalari Sh.Abdiraimov [2], M.Abdijamilova [1], Sh.Murodova [3], N.Nasriddinova [4], N.Xujamkulova [5] ishlarida o‘rganilgan; ularda tushunish darajalari va PIRLS tipidagi topshiriqlar yoritilgan, biroq o‘zbek yozuvining xususiyatlarini hisobga olgan, parallel variantli va o‘qituvchi mustaqil qo‘llay oladigan diagnostik vosita ishlab chiqilmagan.

Muallifning oldingi maqolalarida ongli o‘qish tushunchasining psixologik va lingvistik asoslari [23], EGRA metodologiyasining tahlili va uni integratsion yondashuv bilan bog‘lash imkoniyatlari [21; 22; 24], ongli o‘qishni rivojlantirishning innovatsion strategiyalari [20] hamda xalqaro tajribalar asosida o‘tkazilgan dastlabki sinov natijalari [25] yoritilgan; mazkur maqola shu ishlarning mantiqiy davomi sifatida diagnostik vositaning yaxlit tavsifini beradi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, faoliyatli, kognitiv-psixolingvistik va diagnostik-differensial yondashuvlarga tayanadi. Vositani ishlab chiqishda quyidagi usullar qo‘llanildi: me’yoriy hujjatlar (davlat ta’lim standarti, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” o‘quv dasturi va darsliklari) kontent tahlili; EGRA uslubiy qo‘llanmasi talablari asosida topshiriqlarni loyihalash va ekspert baholash; pilot sinov; ichki izchillikni L.Kronbaxning alfa koeffitsiyenti, baholovchilar kelishuvini sinflararo korrelyatsiya koeffitsiyenti (ICC) bilan tekshirish; milliy EGRA tadqiqotining ikkilamchi ma’lumotlarini tahlil qilish. Vositaning to‘liq tavsifi va topshiriq namunalari muallifning monografiyasi va o‘quv qo‘llanmasida keltirilgan [18; 19]. Muallifning oldingi ishlarida ongli o‘qish tushunchasining psixologik va lingvistik asoslari [23], EGRA metodologiyasining mohiyati va uni ta’lim sifatini baholashda qo‘llash imkoniyatlari [21; 22; 24; 25], ongli o‘qishni rivojlantirishning innovatsion strategiyalari [20] hamda o‘qituvchi tayyorgarligining o‘qish natijalariga ta’siri [26] tahlil qilingan; mazkur maqola shu ishlarning mantiqiy davomi sifatida diagnostik vositaning o‘zini asoslashga qaratilgan.

Natijalar va muhokama

Mezonlar va ko‘rsatkichlar. Ongli o‘qish ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun to‘rt mezon va o‘n ikki ko‘rsatkichdan iborat tizim asoslandi (1-jadval). Texnik mezon dekodlash va ravonlikni, mazmuniy mezon tushunish darajalarini, lingvistik mezon til bazasini, motivatsion mezon o‘qishga munosabatni qamrab oladi. Mezonlarning to‘rttasi ham teng ahamiyatli deb qabul qilindi, chunki ularning har biri o‘qish natijasining mustaqil sababini ifodalaydi.

1-jadval

Ongli o‘qish ko‘nikmalarini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezon	Ko‘rsatkichlar	Diagnostik vosita
Texnik	T1 – ma’nosiz so‘zlarni o‘qish (dekodlash); T2 – tanish so‘zlarni o‘qish (leksik avtomatizm); T3 – matnni ovoz chiqarib o‘qish ravonligi va to‘g‘riligi	EGRA-U subtestlari (bir daqiqada to‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar, xatolar turi)
Mazmuniy	M1 – ochiq axborotni topish; M2 – xulosa chiqarish; M3 – umumlashtirish va talqin, baholash va munosabat	O‘qib tushunish va jim o‘qish subtestlari savollari
Lingvistik	L1 – tinglab tushunish; L2 – retseptiv lug‘at; L3 – matn mazmunini o‘z so‘zi bilan bayon qilish	Tinglab tushunish subtesti; 40 birlikli lug‘at sinovi; qayta hikoya qilish
Motivatsion	F1 – o‘qishga munosabat; F2 – mustaqil mutolaa; F3 – o‘qish maqsadini anglash	O‘quvchi so‘rovnomasi

Tushunish darajalari. Mazmuniy mezon ongli o‘qishning to‘rt darajasiga tayanadi: ochiq axborotni topish, xulosa chiqarish, umumlashtirish va talqin, baholash va munosabat. Darajalar PIRLS konsepsiyasidagi tushunish jarayonlari bilan muvofiq [12], ammo o‘zbek tilidagi matnlar va boshlang‘ich sinf dasturiga moslashtirilgan. Har bir matnga beshta savol beriladi va ularning darajalar bo‘yicha nisbati sinfdan sinfga o‘zgaradi: birinchi sinfda to‘rt quyi va bir yuqori daraja savoli bo‘lsa, uchinchi sinfda bir quyi va to‘rt yuqori daraja savoli beriladi. Shu tufayli vosita faqat “tushundimi yoki yo‘qmi” degan savolga emas, “qaysi darajagacha tushundi” degan savolga javob beradi.


Topshiriqlar bankining tuzilishi. EGRA-U banki 1–4-sinflar uchun yettita subtestni o‘z ichiga oladi: harflarni tanish (1–2-sinf), ma’nosiz so‘zlarni o‘qish, tanish so‘zlarni o‘qish, matnni ovoz chiqarib o‘qish va o‘qib tushunish (1–4-sinf), jim o‘qish va tushunish (3–4-sinf) hamda tinglab tushunish. Matn hajmi sinflar bo‘yicha o‘sib boradi: ovoz chiqarib o‘qish matni birinchi sinfda 36, to‘rtinchi sinfda 120 so‘z, jim o‘qish matni bilan birga umumiy hajm 36 so‘zdan 196 so‘zgacha, o‘rtacha gap uzunligi 4,0 dan 7,9 so‘zgacha (2-jadval). Ma’nosiz so‘zlar o‘zbek tilining bo‘g‘in tuzilishi asosida tuzilgan, uchinchi va to‘rtinchi sinflarda undosh birikmali birliklar belgilangan miqdorda kiritilgan; ro‘yxat ona tili mutaxassisi tomonidan shevalarda mavjud so‘zlar nuqtai nazaridan tekshirilgan.

2-jadval

EGRA-U topshiriqlar bankining sinflar bo‘yicha tuzilishi (A variant)

Ko‘rsatkich	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
Harflarni tanish subtesti	bor	bor	–	–
Ma’nosiz so‘zlar soni (o‘rtacha bo‘g‘in soni)	50	50	50 (2,8)	50 (3,0)
Tanish so‘zlar soni (o‘rtacha bo‘g‘in soni)	50	50	50 (2,8)	50 (3,5)
Ovoz chiqarib o‘qish matni (so‘zlar soni)	36	65	90	120
Gaplar soni / o‘rtacha gap uzunligi (so‘z)	9 / 4,0	10 / 6,5	13 / 6,8	15 / 7,9
Jim o‘qish matni (so‘zlar soni)	–	–	60	76
Umumiy o‘qish hajmi (so‘z)	36	65	150	196
Tushunish savollari (quyi + yuqori daraja)	4+1	2+3	1+4	4+1*

*Izoh: * to‘rtinchi sinfda ovoz chiqarib o‘qish matniga to‘rt quyi va bir yuqori daraja savoli, jim o‘qish matniga esa asosan yuqori daraja savollari beriladi.*



1-rasm. EGRA-U diagnostik vositasining tuzilishi

Parallel variantlar. Bank to‘rt parallel variantdan iborat: A — kirish kesimi, B — oraliq kesim, C — yakuniy kesim, D — zaxira va qayta sinov uchun. Variantlar tengligi har biri uchun tuzilgan tenglik varag‘ida o‘n bitta ko‘rsatkich (birliklar soni,

o‘rtacha bo‘g‘in soni, undosh birikmali birliklar ulushi, matndagi so‘zlar va gaplar soni, o‘rtacha gap uzunligi, savollarning darajalar bo‘yicha taqsimoti va boshqalar) bo‘yicha nazorat qilinadi; har bir ko‘rsatkich uchun ruxsat etilgan farq chegarasi belgilangan (o‘rtacha bo‘g‘in sonida 0,2 dan, matn hajmida uch so‘zdan, gap uzunligida yarim so‘zdan oshmasligi). Parallel variantlar takroriy sinov ta’sirini bartaraf etadi va bir o‘quv yilida uchta kesim o‘tkazish imkonini beradi.

Tinglab tushunish subtestining diagnostik vazifasi. Vositaning o‘zbek maktabi uchun eng muhim jihati tinglab tushunishning alohida o‘lchanishidir. Matnni eshitib ham tushunmagan o‘quvchining muammosi o‘qishda emas, tilda ekani ma’lum bo‘ladi; o‘qib tushunish past, tinglab tushunish esa me’yorida bo‘lgan o‘quvchida muammo dekodlash yoki tushunish strategiyalariga tegishli. Shu tufayli ikki subtestni solishtirish o‘qituvchiga “nima uchun tushunmayapti?” degan savolga javob beradi. Tinglab tushunish savollari o‘qib tushunish savollariga mutanosib qilib darajalar bo‘yicha tuziladi, matn bir marta o‘qib beriladi.

Integral ko‘rsatkich va darajalar. Har bir mezon bo‘yicha koeffitsiyent uchta ko‘rsatkich bo‘yicha olingan ballar (1–3) yig‘indisining eng yuqori ballga nisbati sifatida hisoblanadi: $K = (b_1 + b_2 + b_3) / 9$ va 0,33 dan 1,00 gacha o‘zgaradi. Integral ko‘rsatkich to‘rt mezon koeffitsiyentining teng vaznli o‘rtachasi: $I = 0{,}25 \cdot (K_T + K_M + K_L + K_F)$. Daraja chegaralari teng oraliqlar bo‘yicha belgilandi: 0,33–0,55 — past, 0,56–0,77 — o‘rta, 0,78–1,00 — yuqori. Daraja tavsiflari sifat belgilarida ham berilgan: masalan, mazmuniy mezon bo‘yicha past darajadagi o‘quvchi ochiq ma’lumotni qisman topadi va xulosa chiqara olmaydi, yuqori darajadagi o‘quvchi asosiy fikrni aniqlaydi, matnni umumlashtiradi va unga asoslangan munosabat bildiradi.

Ishonchlilik. Vosita asosiy tajribada qo‘llanilishidan oldin tajriba-sinovda qatnashmaydigan 96 nafar 2–3-sinf o‘quvchisi guruhida pilot sinovdan o‘tkazildi. Subtestlar bo‘yicha Kronbax alfa koeffitsiyenti 0,81–0,89 oralig‘ida bo‘lib, pedagogik-psixologik o‘lchovlar uchun qoniqarli deb qabul qilingan 0,70 chegarasidan yuqori; o‘n besh ovozli yozuvni ikki mustaqil baholovchi tomonidan qayta baholash asosida hisoblangan baholovchilar kelishuvi ICC = 0,93 ni tashkil etdi. Variantlar o‘rtasidagi o‘rtacha natijalar farqi belgilangan chegara ichida bo‘ldi; tushunarsiz deb topilgan 7 ta birlik zaxira birliklar bilan almashtirildi. Termiz shahridagi uch maktabda 176 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan o‘tkazilgan dastlabki sinovda ravonlik bo‘yicha o‘rtacha natija bir daqiqada 51 so‘zni, o‘qib tushunish 58 foizni tashkil etdi, ravonlik bilan tushunish o‘rtasidagi korrelyatsiya r = 0,61 ga teng bo‘ldi; dekodlash ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgani holda tushunish ulardan orqada qoldi, bu milliy tadqiqot xulosalariga mos keladi [14].

O‘tkazish tartibi va raqamli platforma. Bitta o‘quvchi bilan to‘liq protokol 8–12 daqiqa davom etadi; kesimlar oralig‘ida o‘qituvchi uchun qisqartirilgan sinf protokoli (ma’nosiz so‘zlar — 60 soniya, matnni o‘qish — 60 soniya, tushunish savollari — 3–4 daqiqa, qayta aloqa — 1 daqiqa) nazarda tutilgan. Barcha o‘lchovlar raqamli platforma orqali qayd etiladi: platforma uch bosqichli foydalanuvchilar tizimiga

ega (o‘qituvchi, metodist, ma’mur), natijani daqiqada to‘g‘ri o‘qilgan so‘zlar soni, to‘g‘ri javoblar ulushi va ovozli yozuv ko‘rinishida saqlaydi, o‘quvchi profili va sinf xaritasini avtomatik shakllantiradi. Ovozli yozuv baholovchilar kelishuvini tekshirish va grafemalar bo‘yicha xatolarni tahlil qilish imkonini beradi.

Muhokama sifatida ikki jihatni ta’kidlash lozim. Birinchidan, EGRA-U milliy EGRA tadqiqotidan farqli o‘laroq hukumat monitoringi uchun emas, sinf uchun mo‘ljallangan: uni o‘qituvchi mustaqil o‘tkazadi va natijani darhol metodik qarorga aylantiradi. Ikkinchidan, vosita tushunishni darajalar bo‘yicha va til bazasini alohida o‘lchagani uchun o‘qish ko‘nikmasini “tezlik” bilan cheklaydigan an’anaviy tekshiruvdan tubdan farq qiladi. Vositaning cheklovi shundaki, u o‘zbek tilida ta’lim beriladigan sinflarga mo‘ljallangan; boshqa ta’lim tillariga moslashtirish alohida vazifa hisoblanadi.

Xulosa

EGRA-U diagnostik vositasi ongli o‘qishni to‘rt mezon (texnik, mazmuniy, lingvistik, motivatsion) va o‘n ikki ko‘rsatkich bo‘yicha, tushunishning to‘rt darajasini ajratgan holda o‘lchash imkonini beradi. To‘rt parallel variant, tinglab tushunish subtesti, qisqartirilgan sinf protokoli va raqamli platforma vositani o‘quv yili davomida muntazam qo‘llash uchun yaroqli qiladi. Pilot sinov vositaning ichki izchilligi va baholovchilar kelishuvi qabul qilingan me’yorlarga javob berishini ko‘rsatdi. Diagnostika natijasi o‘quvchining qiyinchilik sababini aniqlab bergani uchun u ongli o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi; o‘lchov natijasini kundalik metodik qarorga aylantiruvchi konseptual model va texnologiyalar alohida maqolada yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdijamilova M.M. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning o‘qib tushunish malakalarini shakllantirish metodikasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nukus: Ajiniyoz nomidagi NDPI, 2025. – 155 b.

2. Абдираимов Ш.С. Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолаш: Монография. – Тошкент: Nodirabegim, 2021. – 128 б.

3. Murodova Sh.I. O‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari ustida ishlash metodikasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.

4. Nasriddinova N.A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirish metodikasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.

5. Xujamkulova N.R. Umumta’lim maktablarida xalqaro dasturlar asosida o‘qish savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirish (PIRLS, EGRA xalqaro dasturlari asosida): Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand: SamDU, 2024. – 60 b.

6. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. – 2017-yil 6-aprel, 187-son.

7. Dubeck M.M., Gove A. The early grade reading assessment (EGRA): Its theoretical foundation, purpose, and limitations // International Journal of Educational Development. – 2015. – Vol. 40. – P. 315–322.

8. RTI International. Early Grade Reading Assessment (EGRA) Toolkit, Second Edition. – Washington, DC: USAID, 2016.

9. Gough P.B., Tunmer W.E. Decoding, reading, and reading disability // Remedial and Special Education. – 1986. – Vol. 7(1). – P. 6–10.

10. Hoover W.A., Gough P.B. The simple view of reading // Reading and Writing. – 1990. – Vol. 2. – P. 127–160.

11. Kintsch W. Comprehension: A Paradigm for Cognition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

12. Mullis I.V.S., von Davier M., Foy P., Fishbein B., Reynolds K.A., Wry E. PIRLS 2021 International Results in Reading. – Chestnut Hill: Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2023.